

TA'LIM JARAYONIDA TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING O'QUVCHILAR PSIXOLOGIK VA IJODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Karimjonova Durдона Jaloliddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi,

Ilmiy rahbar: Inoyatov Odiljon Sabitovich

Guliston davlat pedagogika instituti,

"San'atshunoslik" kafedrasi v.b.dotsenti

e-mail: gulduinoyatov@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy san'at darslarining o'quvchilar psixologik rivojlanishi, ijodiy fikrlashi va estetik didini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida o'quvchilarning tasavvuri, diqqat-e'tibori, mayda motorikasi hamda o'ziga bo'lgan ishonchi rivojlanishi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqolada tasviriy san'at darslarini samarali tashkil etish bosqichlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ijodiy fikrlash, estetik tarbiya, o'quvchi psixologiyasi, badiiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayoni, ijodkorlik, estetik did.

THE INFLUENCE OF FINE ARTS EDUCATION ON THE PSYCHOLOGICAL AND CREATIVE DEVELOPMENT OF STUDENTS

Karimjonova Durдона Jaloliddin kizi

1st-year student, Fine Arts and Engineering

Graphics Education program

Gulistan State Pedagogical Institute,

Scientific Supervisor: Inoyatov Odiljon Sabitovich

Acting Associate Professor, Department of Art Studies

Gulistan State Pedagogical Institute

e-mail: gulduinoyatov@gmail.com

Annotation: this article examines the pedagogical significance of fine arts lessons in the psychological development, creative thinking, and aesthetic formation of students. It also analyzes, from a scientific and pedagogical perspective, how visual artistic activities contribute to the development of imagination, attention, fine motor

skills, and self-confidence in learners. In addition, the article highlights the stages of organizing fine arts lessons effectively and discusses the role of modern pedagogical approaches in improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: fine arts, creative thinking, aesthetic education, student psychology, artistic activity, pedagogical technologies, educational process, creativity, aesthetic taste.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual, estetik hamda psixologik jihatdan har tomonlama rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish muhim pedagogik tamoyillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish hamda ularning psixologik barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tasviriy san'at fanining ta'lim tizimidagi o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur fan nafaqat o'quvchilarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki ularning estetik dunyoqarashini kengaytirish, tasavvurini boyitish hamda ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali o'quvchilar atrof-muhitni badiiy idrok etish, ranglar uyg'unligini his qilish, shakl va nisbatlarni to'g'ri anglash kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'ladilar [7:183]. Shu bilan birga, ushbu faoliyat turi bolalarda ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish hamda estetik qadriyatlarni anglash jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at faoliyati o'zining pedagogik va psixologik xususiyatlari bilan boshqa fanlardan sezilarli darajada farq qiladi. Rasm chizish, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik hamda dekorativ-amaliy san'at elementlari orqali amalga oshiriladigan ijodiy jarayon o'quvchilarning tasavvurini boyitadi va ularning ichki dunyosini namoyon etish imkonini yaratadi. O'quvchilar rasm chizish jarayonida o'z fikr-mulohazalari, tasavvurlari va hissiy kechinmalarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ijodiy mustaqilligini shakllantirish bilan birga, shaxsiy fikrlash uslubining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Tasviriy faoliyat orqali o'quvchilar nafaqat san'at asarlarini yaratadilar, balki atrof-muhitni estetik jihatdan idrok etish, borliqdagi go'zallikni ko'ra bilish hamda uni tasviriy ifoda vositalari orqali aks ettirish ko'nikmasini ham egallaydilar [1:27]. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining bolalar psixologiyasiga ta'siri ko'p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Avvalo, rasm chizish jarayoni bolalarning tasavvurini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bola ijodiy faoliyat davomida o'z fantaziyasidan foydalanadi, yangi obrazlar yaratadi va mavjud voqelikni o'z tasavvuri asosida qayta talqin qiladi. Bu jarayon esa ijodiy tafakkurning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik

tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy faoliyat bilan muntazam shug'ullangan bolalarda abstrakt fikrlash, tasavvur qilish hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish qobiliyatlari ancha yuqori darajada rivojlanadi [10:4]. Shuningdek, tasviriy san'at bolalarning hissiy holatini ifodalashda ham muhim vosita hisoblanadi. Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar o'z hissiyotlarini har doim ham so'z orqali to'liq ifoda eta olmaydilar. Rasm chizish jarayonida esa ular o'z quvonchi, tashvishi, qo'rquvi yoki hayajonini ranglar, shakllar va kompozitsiya orqali aks ettira oladilar. Shu sababli tasviriy faoliyat psixologiyada ba'zan terapevtik vosita sifatida ham qo'llaniladi. Badiiy faoliyat jarayoni bolaning ruhiy holatini barqarorlashtiradi, ichki zo'riqishni kamaytiradi hamda ijobiy emotsional muhitni shakllantirishga xizmat qiladi [3:58].

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarda diqqatni jamlash, sabr-toqat hamda mehnatsevarlik kabi muhim sifatlarning shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rasm chizish jarayoni o'quvchidan muayyan vaqt davomida bir faoliyatga diqqatni qaratishni, tasvirlanayotgan obyektning shakli, nisbatlari va rang uyg'unligini kuzatishni talab qiladi. Natijada o'quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyati rivojlanadi hamda ular mayda detallarni farqlashga o'rganadilar. Bu esa boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi [6:356]. Bundan tashqari, tasviriy faoliyat bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Qalam, mo'yqalam, bo'yoq, plastilin kabi vositalardan foydalanish jarayonida qo'l barmoqlari faol harakat qiladi. Ushbu jarayon markaziy asab tizimi faoliyatini faollashtirib, qo'l mushaklari harakatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Natijada bolalarda yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan motorik malakalar rivojlanadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarda yozuv malakalari tezroq va samaraliroq shakllanadi [4:69].

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishda ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Bola o'zi yaratgan tasvirni namoyish etish, o'qituvchi va tengdoshlarining ijobiy fikrlarini eshitish orqali o'z qobiliyatiga nisbatan ishonch hosil qiladi. Bu esa uning o'z-o'zini baholash darajasining oshishiga hamda shaxsiy rivojlanish jarayonining faollashishiga yordam beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, bunday jarayon o'quvchining mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi [11:317]. Ta'lim jarayonida tasviriy san'at darslarini samarali tashkil etish o'qituvchidan puxta metodik yondashuvni talab etadi. Amaliy tajribaga ko'ra, mazkur darslar bir necha izchil pedagogik bosqichlar asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Darsning dastlabki bosqichida o'qituvchi mavzuni tushuntiradi, o'quvchilarni dars mazmuni hamda ishlatiladigan o'quv vositalari bilan tanishtiradi. Ushbu bosqich o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini uyg'otish hamda ularni ijodiy faoliyatga ruhiy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi [1:34].

O'qituvchi tasvirlanadigan obyekt haqida umumiy ma'lumot beradi, namunaviy rasmlar yoki reproduksiya orqali kompozitsiya, rang uyg'unligi hamda tasvirlash usullari haqida tushunchalar beradi.

Keyingi bosqich kuzatish va tushuntirish jarayonidan iborat bo'lib, unda o'quvchilar tasvirlanadigan predmet yoki manzarani diqqat bilan o'rganadilar. O'qituvchi obyektning shakli, nisbatlari, hajmi, yorug'lik va soya munosabatlari haqida izoh beradi. Bu jarayon o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi, chunki ular tasvirlanayotgan obyektning tuzilishini tahlil qilish orqali uni yanada to'g'ri tasvirlashga harakat qiladilar [10:5]. Darsning asosiy qismi hisoblangan amaliy faoliyat bosqichida o'quvchilar mustaqil ravishda rasm chizish jarayoniga kirishadilar. Bu bosqichda ular o'z tasavvuri, kuzatuvlari hamda avval o'zlashtirgan bilimlariga tayangan holda tasvir yaratadilar. O'qituvchi esa metodik rahbar sifatida zarur hollarda tavsiyalar beradi, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda ularga yordam ko'rsatadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi [7:185]. Dars yakunida esa o'quvchilarning ishlari tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu bosqich pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u o'quvchilarning o'z ishlariga tanqidiy yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi har bir ishning ijobiy jihatlarini ta'kidlaydi, mavjud kamchiliklarni muloyim tarzda tushuntiradi hamda o'quvchilarga kelgusida yanada mukammalroq ishlash uchun tavsiyalar beradi. Bunday tahlil jarayoni o'quvchilarda o'z faoliyatini baholash hamda xatolar ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi [6:357].

Umuman olganda, tasviriy san'at darslari ta'lim tizimida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu fan orqali o'quvchilar nafaqat rasm chizish ko'nikmalarini egallaydilar, balki atrof-muhitni chuqurroq anglash, estetik qadriyatlarni idrok etish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Rasm chizish jarayoni bolalarda ijodkorlik, estetik did, kuzatuvchanlik, sabr-toqat hamda mustaqil fikrlash kabi muhim shaxsiy sifatlarni shakllantiradi [5:125]. Shu sababli tasviriy san'at mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Darslarni ilmiy-metodik jihatdan asoslangan bosqichlar asosida tashkil etish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali shakllantirish imkonini yaratadi. Amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirilgan bunday ta'lim jarayoni o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi hamda ularni san'atni qadrlaydigan, estetik tafakkuri rivojlangan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada tasviriy san'at ta'limi nafaqat badiiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi fan sifatida, balki shaxsning ma'naviy-estetik kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi [8:9]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at ta'limi jarayonida

innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning ijodiy fikrlashini yanada faollashtiradi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi [2:3]. Xususan, muammoli o'qitish, integrativ yondashuv va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, badiiy tafakkurini rivojlantirishga hamda ularning o'quv jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qiladi. Bunday metodik yondashuvlar nafaqat tasviriy san'atni o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga, balki kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini ham takomillashtirishga yordam beradi [9:2]. Natijada ta'lim jarayonida ijodkor, tashabbuskor hamda estetik tafakkuri rivojlangan shaxslarni shakllantirish uchun zarur pedagogik muhit yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, estetik dunyoqarashi hamda psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlardan foydalanish esa tasviriy san'at darslarining samaradorligini oshirib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois tasviriy san'at ta'limini ilmiy asosda tashkil etish o'quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi

ADABIYOTLAR \ REFERENCES:

1. Jumaboyev, N. P. "Rangtasvir." "Ilm Ziyozakat" Toshkent-2023.
2. Sabitovich, Inoyatov Odiljon. "AYLANISH SIRTNING UMUMIY VAZIYATDAGI TEKISLIK BILAN KESISHISHIGA DOIR MASALALARNING MAQSADLI BERILISHI." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
3. Хайров, Р. З. "Тасвирий санъат дарсларида иқтидорли ўқувчиларга индивидуал ёндашувнинг илмий методик асослари." Магистрлик диссертацияси.–Т.: ТДПУ 102 (2006).
4. Odiljanovna, Yakubova Nafisa, Yusupova Shohista Alimjanovna, and Nusharov Bobir Bolbekovich. "Problem Teaching Technology. Types of Teaching." International Journal on Orange Technologies 3.5 (2021): 68-72.
5. Pardaboevich, Jumaboev Nabi, and Ibodullaeva Zarifa Tojikulovna. "FACTORS FOR INCREASING SPIRITUAL AND SOCIAL ACTIVITY IN YOUTH EDUCATION." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5 (2024): 124-126.
6. Odiljon, Inoyatov, and Haydarqulova Gulnoza. "TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH." Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal 2.1 (2024): 355-358.
7. Faxriddinovich, Xamrayev Abubakir. "TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIM JARAYONIDA SHAXSNI ESTETIK VA IJODIY RIVOJLANTIRISHDAGI

PEDAGOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 2.4 (2025): 181-187.

8. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3 (2024): 9-9.
9. Sobitovich, Inoyatov Odil, et al. "APPLICATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS Khayrov Rasim Zolimkhan corners. Gulistan State Pedagogical Institute, pedagogy."
10. Shoxista, Y. "TASVIRIY SAN'AT MASHG 'ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI." Uz-Conferences, 2023.
11. Shakarbek o'g'li, Imomov Fozil. "SHAXSGA YO 'NALTIRILGAN TA'LIMNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI." Modern education and development 43.2 (2026): 316-320.